



## SUG'ORILADIGAN MADANIY YAYLOVLAR HUDUDLARINI TASHKIL ETISHNING XUSUSIYATLARI.

**Egamova Dilchehra Adizovna**

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti tayanch doktoranti

**Hojiqulova Mahfuza Olimjon qizi**

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi

**Toshpo'latova Ruxshona Uyg'un qizi**

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8026021>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-June 2023 yil

Ma'qullandi: 08-June 2023 yil

Nashr qilindi: 12-June 2023 yil

### KEY WORDS

*Yaylovlar, pichanzorlar, chorvachilik fermalari, o'tarlar, yozgi lagerlar, suv manbaalari, sug'orish joylari, sug'oriladigan madaniy yaylovlar*

### ABSTRACT

*Yaylovlar hududini tashkil etish yaylovlarni chorvachilik fermalariga, majmualariga biriktirish, yaylov almashishlarni tashkil etish, poda va o'tarlar uchastkalar, navbat bilan qamab boqiladigan uchastkalar, yozgi lagerlar, suv manbaalari va sug'orish joylarini mollar haydaladigan yo'llarni joylashtirish hisoblanadi.*

Yaylovlar hududini tashkil etish masalalari har xil mintaqalarning, tumanlarning, yaylov turlarining aniq ta-biiy va iqtisodiy sharoitlarini, ularning rel'ef bo'yicha joylashishini hisobga olgan holda tabaqalashtirilgan tarzda yechiladi. Bunda asosiy talablar quyidagilar hisoblanadi: poda uchastkalarining o't qoplamasi sifatining har xil turdagi va yoshdagi mollarning biologik xususiyatlariga mos kelishi, mollarning uzoqqa haydaliishiga yo'l qo'ymaslik va almashlab ekishlarda yashil ozuqa ishlab chiqarish joylarini yaylov davrida mollar ularni iste'mol qiladigan joylarga yaqinlatish

Yaylovlarni chorvachilik fermalari va majmualariga biriktirish ularning har xil turdagi mollarni boqish uchun yaroqliligini, mollarni yozda saqlashning xususiyatlarini, o't qoplamasi sifatini hisobga olib bajariladi.

Chorvachilik fermasiga biriktirilgan yaylovlar maydonini (P) aniqlashda, mollarning yashil ozuqaga bo'lgan talabidan (N), yaylovlarning loyihaviy hosildorligidan (U) hamda har yili yaylov almashish tartibida pichan o'rish, dam berish, va o't qatlamini tiklash uchun foydalaniladigan, mollarni haydash yo'llari, yozgi lager, suv manbaalari va sug'orish tarmog'i (sug'oriladigan yaylovlar uchun) uchun ajratiladigan yaylovlar maydonidan kelib chiqish kerak:

$$\Pi = \frac{H}{y} + \Pi_1 + \Pi_2,$$

bunda  $\Pi_1$  - yaylovalmashish jarayonida pichan o'rish, dam berish va o't qatlamini tiklash

uchun ajratiladigan yaylovlar maydoni, o'rtacha hisoblangan maydonning 20% (0,2 N:U) teng; P<sub>2</sub> - mollarni haydash yo'llari, yozgi lagerlar, suv manbaalari va sug'orish tarmog'i uchun ajratiladigan yaylovlar maydoni, tahminan hisoblangan maydonning 5% (0,05 N:U) teng.

Natijada ifoda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\Pi = \frac{H}{y} + \frac{0,2H}{y} + \frac{0,05H}{y} = \frac{1,25H}{y},$$

Hisoblashning bu usuli yaylovlar bilan yaxshi ta'minlangan xo'jaliklarda sutchilik, qo'ychilik va qoramollar buzoqlarining bo'rdoqichilik fermalariga qo'llanilishi mumkin. Cho'chqalar va parrandalar, odatda yashil massani almashlab ekish dalalaridan va ferma yonidagi uchastkalardan olishadi.

Yaylovlar maydoni yetishmaydigan xo'jaliklarda (haydalma yerlar nisbati yuqori tumanlarda) birinchi navbatda ularni fermalarga, mollar turlariga biriktirishning maqsadga muvofiqligi masalasi yechiladi, sababi, mollar mahsuldorligining o'sishi ayrim mol turlari uchun ajratilgan yaylovlar sifatiga bevosita bog'liq bo'ladi.

Sug'oriladigan madaniy va yaxshilangan yaylovlarni sut fermalari va majmualari uchun ajratishga harakat qilinadi.

Sug'oriladigan madaniy yaylovlar hududini tuzishning xususiyati shundan iboratki, uning barcha elementlarining joylashishi yomg'irlatib sug'orish texnikasining texnik-iqtisodiy tavsifini va sug'orish tarmog'ining joylashishini hisobga olishga bo'ysundiriladi. Bunda quyidagi masalalar yechilgan bo'lishi kerak:

- yaylovlarni chorvachilik fermalariga biriktirish;
- yaylov almashishlarni ishlab chiqish;
- sug'orish tarmog'ini va yomg'irlatib sug'orish mashinalarini (qurilmalarni) joylashtirish tartibini tanlash; poda uchastkalarini, mollar navbat bilan qamab boqiladigan maydonlarni, yozgi lagerlarni, suv manbaalarini, mollar haydaladigan yo'llarni joylashtirish;
- sug'orish tarmog'ini joylashtirish.

Sug'oriladigan madaniy yaylovlar odatda mahsuldorli-gi yuqori mollarga, eng avvalo sut fermalariga biriktiriladi. Yaylov almashishlar o'rmon - cho'l sharoitida 6-10 va cho'l sharoitida 4-8 yillik rotatsiyali qilib loyihalanadi. Sug'orish tarmog'ini joylashtirish tartibini tanlashga yaylov uchastkasining maydoni, shakli, rel'efi, navbat bilan qamab boqiladigan maydonlar soni va o'lchamlari, yomg'irlatib sug'orish mashinasining (qurilmasining) turi ta'sir etadi. Almaliyotda yaylovlarni sug'orishda suvlarni mexanik ko'tarishga asoslangan yomg'irlatib sug'orish tizimi ko'p tarqalgan. U ko'pincha quvur o'tkazgichlar shaklida loyihalanadi va gidrantlari yer yuzasiga chiqarilib yerga yotqizilgan doimiy, sug'orish oldidan yaylov yuzasiga yotqiziladigan ko'chma, magistral quvurlari yerga ko'milgan, ularga sug'orish quvurlari ulanadigan aralash (yarim doimiy) bo'lishi mumkin.

Sug'oriladigan madaniy yaylovlar uchun odatda mollar podalari sigirlar-200, buzoqlar-100, yosh qoramollar-300 bosh o'lchamlarda shakllantiriladi. Poda uchastkalarining hisoblangan maydoni yomg'irlatib sug'orish mashinalarining mavsumiy unumdorligiga teng bo'lishi kerak. Maydonlari kichik bo'lgan buzoqlarning poda uchastkalariga, ularning umumiy maydonlari sug'orish texnikasining mavsumiy unumdorligiga teng bo'lganda, bitta yomg'irlatib sug'orish mashinasi xizmat ko'rsatishi mumkin. Poda uchastkalarining maydoni

va tomonlari o'lchamlari sug'orish tarmoqlarini va navbat bilan mollar qamab boqiladigan maydonlarni joylashtirish jarayonida uzil-kesil aniqlanadi.

Navbat bilan qamab boqiladigan maydonlarni loyihalash, ularning sonini va maydonini aniqlashdan, shakli va joylashishini belgilashdan iborat bo'ladi. Shuni unutmaslik kerakki, sug'oriladigan madaniy yaylovlarda bir qamab boqiladigan maydonda mollar boqiladigan kun-lar soni bir o'tlatish siklida 1-3 kunni, o't qoplamasining o'sish davri o'rtacha 24-26 kunni tashkil etadi.

Sug'orish sharoitida mollar qamab boqiladigan maydonning o'lchamlari va shaklini belgilashga sug'orish tarmog'i turi, yomg'irlatib sug'orish mashinasi (qurilmasi) tipi, sug'orish tarmog'ining joylashish tartibi ta'sir etadi.

Mollarni qamab boqish maydonining yaxshi shakli uzunligi va kengligi yomg'irlatish qanotlari kengligiga yoki yomg'irlatib sug'orish mashinalarining ishlash radiuslariga teng bo'lgan to'g'ri burchakli to'rtburchak hisoblanadi. «Fregat» nomli yomg'irlatib sug'orish mashinasidan foydalanilganda, poda uchastkalarida burchakli va aylana shaklidagi mollar qamab boqiladigan maydonlar loyihalash mumkin.

Mollarni qulay boqishni tashkil etish va podaning erkin aylanishini ta'minlash uchun sug'oriladigan madaniy yaylovlarda bir sigir hisobiga qamab boqiladigan maydonning kengligi 0,5-0,7 m qilib qabul qilinadi.

Mollarni qamab boqish maydonlari quyidagi talablarga mos qilib joylashtiriladi:

- ← sug'orish texnikasidan yuqori unum bilan foydalanish;
- ← sug'orish tarmog'ining, mollar haydaladigan yo'llarning va mollar qamab boqiladigan maydonlar perimetrlarining minimal uzunligi;
- ← har bir qamab boqiladigan maydonni mustaqil sug'orish;
- ← joyning rel'efi, yorug'lik tomonlari, sug'orish tarmog'i joylashishi;
- ← fermalar, yozgi lagerlar, suv manbaalaridan eng qisqa masofa.

Qamab boqiladigan maydonlar ichida vaqtinchalik chetan devorlar (elektr cho'ponlar) yordamida mollarni bo'lib o'tlatish tashkil etiladi. Sug'orish texnikasidan yuqori unum bilan foydalanishga, qamab boqiladigan maydonlar sug'orish tarmog'ining namunaviy tartibiga mos qilib joylashtirilganda erishiladi. Har bir maydonni mustaqil sug'orish, qachonki u ma'lum magistral suv taqsimlovchi quvurga ulangan bo'lsa amalga oshadi.

Mollar haydaladigan yo'llarni loyihalashda sug'orish tizimining turi va joylashishi, qo'llaniladigan yomg'irlatib sug'orish mashinalari va qurilmalari tiplari hisobga olinadi. DDN tipidagi yomg'irlatib sug'orish mashinalaridan foydalanadigan sug'orish tizimi mollar haydaladigan yo'llarni poda uchastkalarida ichida, qamab boqiladigan maydonlarni koridor tizimi bo'yicha joylashtirib loyihalash imkonini beradi. Boshqa mashinalar va qurilmalardan foydalanilganda mollar haydaladigan yo'llar, asosan, poda uchastkasining tashqi chegarasi bo'yicha loyihalashadi. Mollar haydaladigan yo'llar kengligi sug'orilmaydigan yaylovlardagi kabi qilib qabul qilinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Egamova, D.A, Shukurova N.O, Ahmadov B.O (2020). EFFICIENT AND RATIONAL USE OF LAND RESOURCES IS A REQUIREMENT OF THE TIME. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 327-328).
2. Egamova, Dilchehra Adizovna; Bobojonov, Said; Muhamadov, Qamariddin Muxtarovich. "BUXORO VILOYATIDA TUPROQ MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH CHORA-

- TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH." Студенческий вестник 18-11 (2021): 92-94
3. Tukhtaeva K. T., Egamova D. A. CHARACTERISTICS OF DESERT-SANDY SOILS OF KANIMEKH DISTRICT //The Way of Science. – 2014. – С. 49.
4. Жураев Т. Х., Эгамова Д. А. ГЕОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ДЛЯ СИМУЛЯЦИИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ОБОРАЧИВАНИЯ ПЛАСТА //СОВРЕМЕННЫЕ ИНСТРУМЕНТАЛЬНЫЕ СИСТЕМЫ, ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИННОВАЦИИ. – 2020. – С. 106-109.
5. Egamova Dilchehra Adizovna, Bobojonov Said Utkirovich, & Mukhamadov Kamariddin Mukhtarovich. (2021). IMPROVEMENT OF SOIL RECLAMATION (ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION). Euro-Asia Conferences, 5(1), 285–286.
6. Egamova, D. A., Azimova, S. J., Muxamadov, Q. M., & Bobojonov, S. (2021). LABOR RELATIONS ON THE FARM. Актуальные научные исследования в современном мире, (6-2), 23-26.
7. Tuxtayeva, X. T., Egamova, D. A., & Hamroyeva, B. Z. (2022). The Potential of Ecotourism in the Economic and Social Development of Bukhara Region. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 8, 155-158.
8. Adizovna, E. D., & Farrukhovna, Q. L. (2022). LAND RESOURCES MANAGEMENT ISSUES. European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(05), 138-141.
9. Adizovna, E. D. (2022). ECONOMIC AND ECOLOGICAL ASPECTS OF AGRICULTURAL LAND PROTECTION IN INTER-FARM LAND CREATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 1304-1310. Adizovna, E. D. (2022). ECONOMIC AND ECOLOGICAL ASPECTS OF AGRICULTURAL LAND PROTECTION IN INTER-FARM LAND CREATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 1304-1310.
10. Adizovna, E. D., & Shokirovich, H. S. (2022). Features of Land Monitoring in Agriculture. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(6), 193-196.
11. Abdulloev, A. M., Sattorov, S. Y., Sulaymonov, M. V., Abdualiyeva, S. H., Ochilov, A. B., & Ismatov, T. A. (2022). Foreign Experience in Land Use Management. Indonesian Journal of Innovation Studies, 18.
12. Muzaffarovich, A. A., Yarashovich, S. S., & Hamdamovna, A. S. (2022). SUVDAN OQILONA FOYDALANISHDAGI MUAMMOLAR. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 911-915.
13. Adizovna, E. D., & Nematovich, S. J. (2022). ADVANTAGES OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN GROUND MONITORING. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 10(11), 1-4
14. Adizovna, E. D. (2023). YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI BOSHQARISH MASALALARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 173-178.
15. Adizovna, E. D. (2023). DISTINCTIVE FEATURES OF THE GERMAN CADASTRAL SYSTEM. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 2(20), 178-182.
16. Эгамова, Д. (2023). Социально-экономическое значение приватизации земельных участков. Основные направления стратегии земельной реформы: проблемы и решения, 1(1), 101-108.

17. Adizovna, E. D., & Majiddinovich, U. U. (2023). GERMANIYA KADASTR TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(16), 358-362.
18. Егамова, Д. А., Бобожонов, С. У., & Мухамадов, К. М. (2014). ПОВЫШЕНИЕ РАЦИОНАЛЬНОГО И ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ. The Way of Science, 57.
19. Adizovna, E. D., & Majiddinovich, U. U. (2023). O'ZBEKISTONDA MULKNI HIMOYA QILISH HAMDA XUSUSIY MULKCHILIK SHAKLLARINI YANADA TAKOMILLASHTISH. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 2(15), 83-89.
20. Эгамова, Дильчехра, and Н. К. Ахадова. "МЕТОДИКА И ТЕХНОЛОГИЯ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ЗЕМЕЛЬНОЙ СТРУКТУРЫ." Центральноазиатский журнал образования и инноваций 2.3 (2023): 53-57.
21. Adizovna, E. D. (2023). SYSTEM OF LAND STRUCTURE DESIGN IN UZBEKISTAN AND ITS MAIN CONTENT. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 155-161.
22. Egamova, D., & Ahadova, N. (2023). O'ZBEKISTONDA YER TUZISHNI LOYIHALASH TIZIMI VA UNING ASOSIY MAZMUNI. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(3), 47-52.
23. Xasanov, F., Egamova, D., & Asatov, J. (2023). EKOLOGIK BERQARORLIK SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI YERLARINI LOYIHALASHNING SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(3), 138-143.
24. Egamova, D., Nurullayev, S., & Ahadova, N. (2023). XUSUSIY MULK SIFATIDA YERDAN FOYDALANISH MEKANIZMI SHAKLLANISHING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 1(3), 18-23.
25. Пиримов, Ж. ., Юсупов, М. ., & Қўзиёв, Х. . (2022). КАРТАЛАРНИ ЯРАТИШДА ФОТОГРАММЕТРИК МЕТОДЛАРНИ ҚЎЛЛАШ. ZAMONAVIY FAN, TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISH MUAMMOLARINING INNOVATSION YECHIMLARI, 184–187.
26. ПИРИМОВ, Ж. Ж. (2021). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОРТОФОТОПЛАНОВ ДЛЯ РАБОТЫ КАДАСТРА С ПОМОЩЬЮ ФОТОГРАММЕТРИЧЕСКИХ МЕТОДОВ И ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ СИСТЕМ. In Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2021 (pp. 295-299).
27. Pirimov, J. J. (2020). USE OF PHOTOGRAMMETRIC METHODS AND GEOINFORMATION SYSTEMS IN CADASTRAL WORKS. In Эффективность применения инновационных технологий и техники в сельском и водном хозяйстве (pp. 333-335).
28. Пиримов, Ж. Ж. (2020). ФОТОГРАММЕТРИК МЕТОДЛАР ВА ГЕОАХБОРОТ ТИЗИМЛАРИДАН КАДАСТР ИШЛАРИДА ФОЙДАЛАНИШ. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (SPECIAL ISSUE).
29. Asatov, A. R., Pirimov, J. J., Muhamadov, K. M., Bobojonov, S. O., & Axtamov, S. F. (2021). The Importance of Orthophotoplans in Cadastre Work. International Journal on Orange Technologies, 3(7), 40-42.
- 30.
31. Adizova.F.N YER MONITORINGI-ILMIY YO'NALISH SIFATIDA.(KONSEPSIYASI, METODOLOGIYASI, TEXNOLOGIYASI) .PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI 1 (3), 624-629

32. FN Adizova, KM Mukhamadov, ZT Abdulloyev, SS Saidov RESEARCH PARK Page 1 INTERNATIONAL JOURNAL ON ECONOMICS, FINANCE AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT. 55-59
33. Ibragimova, M., & Egamova, D. (2023). QISHLOQ XO'JALIK ICHKI YER TUZISH LOYIHALARIDA ALMASHLAB EKISHLAR HUDUDINI TASHKIL ETISH NING ILMIY AHAMIYATI. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 1(3), 118-122.
34. Adizovna, E. D., & Qahramon o'g'li, N. S. (2023). QISHLOQ XO'JALIGIGA MO'LJALLANMAGAN YER UCHASTKALARINI XUSUSIYLASHTIRISHDA YER AXBOROT BAZASINI YARATISHNI TAKOMILLASHTIRISH. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(3), 494-499.
35. Mirzoaliyevna, I. M., & Adizovna, E. D. (2023). ECOLOGICAL EFFICIENCY OF THE PROJECT OF INSTRUCTION IN THE FARM. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 6(3), 500-506.

